



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	



“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARD XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti
Bakalavr ta'lim yo'nalishining 1-kurs talabasi
Email: urolbekmasharipov@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-3918-2969

Ilmiy rahbar:

Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna

i.f.d (DSc), professor
Toshkent davlat transport universiteti
ORCID: 0009-0008-1048-413X

Annotatsiya: Zamonaviy turizm bozorida mehmonxona xizmatlarining sifati va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Toshkent shahrida joylashgan “Lokomotiv” mehmonxonasi (3 yulduzli, 2014-yil rekonstruksiya so'ng faoliyatini davom ettirmoqda) tranzit va biznes sayyohlar uchun qulay infratuzilma hamda transport tugunlariga yaqin joylashuvi bilan ajralib turadi. Mehmonxona faoliyati O'z DSt 3296:2023 va O'z DSt 3220:2023 milliy standartlari talablariga mos ravishda tashkil etilgan. Mazkur tadqiqotda mehmonxona xizmatlari sifatini oshirishda raqamli innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jumladan, QR-kod texnologiyalari, biometrik identifikatsiya, mobil kalitlar, Big Data asosida shaxsiy xizmatlar hamda VR-turlar kabi zamonaviy texnologiyalar mehmonxona xizmatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2026-yilda 12 mln xorijiy sayyohni jalb etish maqsadlari doirasida Hilton, Marriott va Accor kabi xalqaro mehmonxona tarmoqlari tajribasi ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mehmonxonalarni ekologik mas'uliyatli, innovatsion va texnologik jihatdan rivojlantirish strategiyasini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Lokomotiv mehmonxonasi, 3-yulduzli mehmonxona, tranzit sayyohlar, raqamli transformatsiya, mehmonxona xizmatlari, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: In the context of modern tourism development, improving the quality of hotel services and introducing innovative management approaches have become increasingly important. The Lokomotiv Hotel, located in Tashkent, (3-star category, operating after reconstruction in 2014) offers convenient infrastructure and proximity to major transport hubs, making it attractive for transit and business travelers. The hotel operates in accordance with the national standards O'z DSt 3296:2023 and O'z DSt 3220:2023. This study analyzes the potential of enhancing hotel competitiveness through the implementation of digital innovations. In particular, the application of QR-code technologies, biometric identification, mobile keys, personalized services based on Big Data, and virtual reality (VR) tours are considered as tools to improve service efficiency. Furthermore, considering Uzbekistan's strategic goal of attracting 12 million foreign tourists by 2026, the international practices of global hotel chains such as Hilton, Marriott, and Accor are examined. The research highlights the importance of developing environmentally responsible and technologically advanced hotel management strategies.

Key words: Lokomotiv Hotel, 3-star hotel, transit tourists, digital transformation, hotel services, innovative technologies.



Аннотация: В современных условиях развития туристической индустрии особое значение приобретает повышение качества гостиничных услуг и внедрение инновационных методов управления. Гостиница «Локомотив», расположенная в городе Ташкенте (3-звёздочная, функционирует после реконструкции 2014 года), отличается удобной инфраструктурой и выгодным расположением вблизи транспортных узлов, что делает её привлекательной для транзитных и деловых туристов. Деятельность гостиницы организована в соответствии с требованиями национальных стандартов O'z DSt 3296:2023 и O'z DSt 3220:2023. В статье анализируются возможности повышения конкурентоспособности гостиницы за счёт внедрения цифровых инноваций. В частности, рассматривается применение QR-кодов, биометрической идентификации, мобильных ключей, персонализированных услуг на основе Big Data, а также виртуальных туров (VR). Кроме того, в контексте стратегической цели Узбекистана по привлечению 12 млн иностранных туристов к 2026-му году изучается международный опыт гостиничных сетей Hilton, Marriott и Accor. Результаты исследования подчеркивают необходимость развития гостиниц на основе экологической ответственности, цифровых технологий и инновационного управления.

Ключевые слова: гостиница «Локомотив», 3-звёздочная гостиница, транзитные туристы, цифровая трансформация, гостиничные услуги, инновационные технологии.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sayyohlik oqimining ortib borishi bilan birga, mehmonxona xo'jaligiga bo'lgan talab ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda. 2026-yilga kelib 12 million nafar xorijiy mehmonni qabul qilish rejalashtirilgan. Bu esa mehmonxona infratuzilmasini yanada takomillashtirish hamda xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro darajaga olib chiqishni talab etadi.

Ana shunday mehmonxonalardan biri – Toshkent shahrida joylashgan “Lokomotiv” mehmonxonasidir. Mazkur mehmonxona 2014-yilda uzoq muddatli rekonstruksiya dan so'ng qayta ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi kunda 3-yulduzli toifaga ega. Uning muhim afzalliklaridan biri shaharning asosiy transport tugunlari – temiryo'l vokzali va xalqaro aeroportga yaqin joylashganidir. Mazkur omil mehmonxonani ayniqsa tranzit sayohatchilar hamda qisqa muddatli biznes tashrif buyuruvchilar uchun qulay joylashuvga ega xizmat ko'rsatish maskaniga aylantiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy mehmonxona bozorida xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda yangi qurilgan zamonaviy mehmonxonalar hamda xalqaro mehmonxona tarmoqlari (masalan, Hilton va Wyndham) tomonidan ilg'or texnologiyalar va qulay xizmatlar joriy etilmoqda. Shu sababli “Lokomotiv” kabi 3-yulduzli mehmonxonalar ham o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida zamonaviy tendensiyalarni inobatga olishi, xizmatlar turini diversifikatsiya qilishi hamda innovatsion yechimlarni joriy etishi muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – “Lokomotiv” mehmonxonasining zamonaviy sharoitdagi faoliyat xususiyatlarini tahlil qilish, uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda istiqbolli yo'nalishlarini asoslashdan iborat. Xususan, mehmonxona faoliyatida raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish yo'llari ham tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish masalalari iqtisodiyot hamda turizm sohasida faoliyat yurituvchi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, o'zbekistonlik olimlar Karimov B. va Yusupov S. o'zlarining “Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” nomli darsligida mehmonxona xizmatlari sifatini oshirishning asosiy omillari, xodimlarni samarali boshqarish hamda mijozlar bilan ishlash usullarini batafsil yoritib bergan. Ahmedov D. esa “Turizm iqtisodiyoti” nomli asarida turizm infratuzilmasining rivojlanish istiqbollari hamda uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham mehmonxona biznesining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari keng yoritilgan. Deloitte kompaniyasining 2026-yilga mo'ljallangan prognozlariga ko'ra, mehmonxona sanoatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish hamda raqamli xavfsizlikni kuchaytirish ustuvor yo'nalishlarga aylanib bormoqda. Baker McKenzie tahlillari esa xalqaro mehmonxona tarmoqlari tomonidan raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish yo'nalishlariga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

Hilton mehmonxonalar tarmog'ining tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Kompaniya 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli dastur ishlab chiqqan. Shu bilan



birga, mehmonxonalarida kontaktsiz mobil kalitlar, aqlli termostatlar hamda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan shaxsiy xizmat tizimlari joriy etilgan. Bunday innovatsion yondashuvlar nafaqat mijozlar qoniqishini oshiradi, balki mehmonxona faoliyatining umumiy samaradorligini ham kuchaytiradi.

Marriott International mehmonxona tarmog'i ham ekologik barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Kompaniyaning 2025-yilgi barqarorlik hisobotida ko'plab mehmonxonalar xalqaro ekologik sertifikatlarga ega ekani hamda mobil ilova orqali mehmonlarga xonani oldindan tanlash, ovqat buyurtma qilish va xonadagi yoritish tizimini shaxsiy didiga moslashtirish imkoniyatlari yaratilgani ta'kidlangan.

Fransiyaning Accor mehmonxona tarmog'i esa "Planet 21" barqaror rivojlanish dasturi bilan tanilgan. Mazkur dastur doirasida 2026-yilga qadar mehmonxonalarni ekologik sertifikatlash, oziq-ovqat chiqindilarini 60 foizga qisqartirish hamda bir martalik plastik mahsulotlardan bosqichma-bosqich voz kechish rejalashtirilgan [10]. Bunday tashabbuslar ekologik mas'uliyatni mehmonxona biznesi strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylantirgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mehmonxona faoliyati nafaqat xizmat ko'rsatish sifati va qulaylik darajasi, balki texnologik innovatsiyalar hamda atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuv orqali ham rivojlanadi. "Lokomotiv" mehmonxonasi misolida ushbu omillarning ahamiyati va ularni joriy etish imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur maqola aynan shu yo'nalishdagi tahlillarni amalga oshirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, qiyosiy tahlil usuli asosida "Lokomotiv" mehmonxonasining xususiyatlari hamda xizmat ko'rsatish tizimi mahalliy va xorijiy mehmonxonalar faoliyati bilan taqqoslab o'rganildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish usuli orqali O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, xalqaro tashkilotlar, xususan UNWTO, hamda mehmonxonalarning rasmiy veb-saytlarida keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuvdan ham foydalanilib, mehmonxona faoliyati yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi hamda uning asosiy tarkibiy qismlari — joylashuv, xonalar fondi, xizmatlar turlari va zamonaviy texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlashtirildi. Bundan tashqari, mantiqiy tahlil usuli yordamida mavjud holat baholanib, mehmonxona faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullaridan ham foydalanildi, ya'ni xususiy misollar, jumladan "Lokomotiv" mehmonxonasi faoliyati tahlili asosida umumiy qonuniyatlar aniqlanib, umumiy tendensiyalar asosida esa aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ilmiy usullar majmui tadqiqotning nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Lokomotiv" mehmonxonasi Toshkent shahrining nisbatan markaziy qismida, temiryo'l vokzali va xalqaro aeroportga yaqin hududda joylashgan. Bunday joylashuv tranzit sayohatchilar, poyezd yoki samolyotga ulanishi zarur bo'lgan yo'lovchilar, shuningdek qisqa muddatli xizmat safarlari bilan kelgan biznes vakillari uchun katta qulaylik yaratadi. Transfer vaqtining qisqa bo'lishi ayniqsa vaqtni qadrlaydigan mehmonlar uchun muhim afzallik hisoblanadi.

Mehmonxona 23 ta xonadan iborat bo'lib, xonalar sonining nisbatan kamligi xizmat ko'rsatishda individual yondashuvni ta'minlash hamda xizmat sifatini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Xonalar klassik uslubda jihozlangan bo'lib, har bir xonada qulay mebellar, konditsioner, minibar, sun'iy yo'ldosh televideniyesi hamda bepul yuqori tezlikdagi Wi-Fi mavjud. Bundan tashqari, xonalar dam olish zonasi, keng garderob, zamonaviy sanitariya jihozlari va tekis ekranli televizorlar bilan ta'minlangan. Xonalardagi pollarning gilam bilan qoplanganligi esa mehmonlar uchun qo'shimcha qulaylik va issiqlik muhitini yaratadi.

Mehmonxona restorani milliy hamda Yevropa oshxonasiga oid turli taomlarni taklif etadi. Mazkur restoran nafaqat mehmonxona mehmonlari, balki tashrif buyuruvchilar uchun ham ochiq. Shuningdek, mehmonxona hududida dam olish va ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida sport zali, sauna, bilyard xonasi hamda doimiy faoliyat yurituvchi biznes markaz mavjud bo'lib, bu xizmatlar mehmonlarning turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston mehmonxona bozorida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xalqaro mehmonxona tarmoqlari, jumladan Hilton, Wyndham va Marriott kabi kompaniyalar mamlakatimizda o'z mehmonxonalarini ochmoqda, shu bilan birga yangi mahalliy mehmonxonalar ham faol rivojlanmoqda. Mazkur jarayon mehmonxona xizmatlari bozorida raqobat muhitini yanada rivojlantirib, xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Shu sababli "Lokomotiv" kabi 3-yulduzli mehmonxonalar ham o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida xizmat ko'rsatish sifatini muntazam takomillashtirib borishi hamda zamonaviy talablarga moslashishi muhim hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar O'zbekiston davlat standartlari hisoblanadi. Jumladan, O'z DSt 3220:2023 — “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar” standarti mehmonxona binolari va hududining holati, texnik jihozlarning xavfsizligi, gigiyena va sanitariya normalari, xizmat ko'rsatish jarayonlarining sifati hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratiladigan qulayliklarni belgilab beradi. Shuningdek, O'z DSt 3296:2023 — “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” standarti mehmonxonalarga yulduzli toifa berish tartibini tartibga soladi. Mazkur standart xalqaro Hotelstars Union mezonlariga asoslangan bo'lib, unda balli baholash tizimi qo'llaniladi. Ushbu tizimga ko'ra, 3-yulduzli mehmonxona toifasini olish uchun kamida 407 ball, ya'ni umumiy ballarning taxminan 70 foizini to'plash talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida “Lokomotiv” mehmonxonasining zamonaviy sharoitdagi o'rni hamda rivojlanish istiqbollari chuqur tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, “Lokomotiv” mehmonxonasi tranzit va biznes sayyohlar uchun qulay joylashuvga hamda zarur infratuzilmaga ega bo'lib, mehmonlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy mehmonxona bozorida raqobat muhitining rivojlanishi xizmat ko'rsatish sifatini muntazam takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishni talab etadi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya zamonaviy mehmonxona biznesining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Jumladan, kontaktsiz xizmatlar, mobil ilovalar, aqlli qurilmalar va shaxsiylashtirilgan xizmatlar mehmonlar qoniqishini oshirish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat tamoyillarini joriy etish mehmonxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya va suv resurslarini tejash, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik sertifikatlarni olish mehmonxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Xalqaro mehmonxona tarmoqlari, xususan Hilton, Marriott va Accor kompaniyalari tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli mehmonxonalar o'z rivojlanish strategiyasida innovatsion texnologiyalar va ekologik mas'uliyat tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish doirasida 2026-yilga kelib 12 million nafar xorijiy sayyohni qabul qilish rejalashtirilgani “Lokomotiv” mehmonxonasi uchun ham yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish mehmonxona faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Olib borilgan tahlillar asosida “Lokomotiv” mehmonxonasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, mehmonxona faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim hisoblanadi. Jumladan, QR-kod yoki mobil ilova orqali amalga oshiriladigan kontaktsiz ro'yxatdan o'tish (check-in) tizimini joriy etish, xonalar eshiklarini ochish uchun mobil kalit texnologiyasini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda mehmonlar uchun shaxsiy kabinetga ega mobil ilova yaratish tavsiya etiladi. Mazkur ilova orqali xona bron qilish, qo'shimcha xizmatlarga buyurtma berish va xona haroratini masofadan boshqarish kabi imkoniyatlarni taqdim etish mumkin. Bundan tashqari, mijozlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan Big Data tizimini joriy etish orqali mehmonlarning ehtiyojlari va afzalliklarini aniqlash hamda ularga mos shaxsiy takliflarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Mehmonxona faoliyatida ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy etish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda energiya tejamkor yoritish tizimlariga to'liq o'tish, harakat sensorlarini o'rnatish, bir martalik plastik buyumlardan bosqichma-bosqich voz kechish hamda chiqindilarni alohida yig'ish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatish hamda restoran menyusiga mahalliy va mavsumiy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni kiritish mehmonxonaning ekologik mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Yashil kalit” (Green Key) kabi xalqaro ekologik sertifikatlarni olish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash ham istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xizmatlar turini kengaytirish ham mehmonxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, mahalliy turoperatorlar bilan hamkorlikda “mehmonxona + transfer” yoki “mehmonxona + ekskursiya” kabi paketli xizmatlarni ishlab chiqish, biznes sayyohlar uchun maxsus xizmat paketlarini taklif etish hamda temiryo'l vokzali va aeroport bilan hamkorlikda transfer xizmatlarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, mehmonxona marketing strategiyasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda, xususan Instagram, Facebook va Telegram platformalarida faol bo'lish, mehmonxona yangiliklari va maxsus takliflarni muntazam e'lon qilib borish, xalqaro bron qilish platformalarida, jumladan Booking.com va Expedia tizimlarida mehmonxona profilini muntazam yangilab borish hamda mijozlar sharhlariga tezkor javob berish xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mehmonxonaning rasmiy veb-saytini zamonaviy dizayn, qulay navigatsiya va ko'p tilli (o'zbek, rus va ingliz) interfeys asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.



Mehmonxona faoliyatining samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyati ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli xodimlar uchun mijozlar bilan ishlash madaniyati, chet tillarini o'rganish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish, xodimlarning innovatsion g'oyalarini rag'batlantirish tizimini joriy etish hamda xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish muhim hisoblanadi.

Mazkur taklif va tavsiyalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi "Lokomotiv" mehmonxonasining nafaqat mahalliy, balki xalqaro turizm bozorida ham raqobatbardoshligini oshirishga, yangi mijozlarni jalb qilishga hamda mavjud mijozlar sodiqligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston turizm sanoatining barqaror rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khodjaeva, N. A. Mehmonxona xo'jaligida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish omillari // American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm sohasida yangi standart qabul qilindi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal, 2025. – URL: <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/105030>.
3. Lokomotiv Hotel rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2025. – URL: www.lokomotiv-hotel.uz. Destinia. Hotel Lokomotiv, Tashkent. – Madrid: Destinia, 2025. – URL: <https://destinia.com/en/hotels/asia/uzbekistan/tashkent/tashkent/lokomotiv/ho-1229125>.
4. Karimov, B., Yusupov, S. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 312 b.
5. Ahmedov, D. Turizm iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 280 b.
6. Deloitte. 2026 Travel and Hospitality Industry Outlook. – London: Deloitte Insights, 2025. – URL: <https://www2.deloitte.com>.
7. Baker McKenzie. Hospitality Industry Trends and Legal Framework 2026. – Chicago: Baker McKenzie, 2025.
8. Hilton. 2030 Goals: Travel with Purpose. – McLean, Virginia: Hilton Corporate Communications, 2024. – URL: <https://esg.hilton.com/2030-goals/>.
9. Marriott International. 2025 Sustainability & Social Impact Report. – Bethesda, Maryland: Marriott International, 2025. – URL: <https://www.marriott.com/corporate-social-responsibility.mi>.
10. Accor. Planet 21 Sustainability Program: 2026 Roadmap. – Paris: Accor Group, 2025. – URL: <https://group.accor.com/en/commitment/planet-21>.
11. UNWTO. International Tourism Highlights, 2025 Edition. – Madrid: World Tourism Organization, 2025. – 56 p.
12. O'z DSt 3220:2023. "Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar." – Toshkent: O'zbekiston standartlashtirish agentligi, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>